


**O'zbekiston Respublikasida
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
2025-yil yanvar–sentabr oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

O'zbekiston Respublikasida 2025-yil yanvar–sentabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6 166,9** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **19,2 %** ga o'sgan.

Yillar kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025-yilning yanvar–sentabr oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)
O'zbekiston Respublikasi	6 166,9	119,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 902,3	117,6
Andijon viloyati	4 996,5	112,0
Buxoro viloyati	4 953,1	118,2
Jizzax viloyati	4 589,0	119,2
Qashqadaryo viloyati	4 270,8	117,2
Navoiy viloyati	7 612,3	115,1
Namangan viloyati	4 543,8	120,9
Samarqand viloyati	4 853,3	124,8
Surxondaryo viloyati	4 347,2	118,4
Sirdaryo viloyati	4 930,8	120,7
Toshkent viloyati	5 803,6	117,3
Farg'ona viloyati	4 574,5	119,8
Xorazm viloyati	4 833,7	117,6
Toshkent shahri	10 379,6	118,7

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Toshkent shahrida **10 379,6** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,7 %** ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Samarqand viloyatida **4 853,3** ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,8 %**), Namangan viloyatida **4 543,8** ming so'mni (**120,9 %**), Sirdaryo viloyatida **4 930,8** ming so'mni (**120,7 %**), Farg'ona viloyatida **4 574,5** ming so'mni (**119,8 %**) va Jizzax viloyatida 4 589,0 ming so'mni (**119,2 %**) tashkil etgan.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Andijon viloyatida **4 996,5** ming so'mni (**112,0 %**), Navoiy viloyatida **7 612,3** ming so'mni (**115,1 %**), Qashqadaryo viloyatida **4 270,8** ming so'mni (**117,2 %**), Toshkent viloyatida **5 803,6** ming so'm (**117,3 %**), Xorazm viloyatida **4 833,7** ming so'mni (**117,6 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasida **4 902,3** ming so'mni (**117,6 %**), Buxoro viloyatida **4 953,1** ming so'mni (**118,2 %**) hamda Surxondaryo viloyatida **4 347,2** ming so'mni (**118,4 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga oid bo'lib, 2024-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)
Sanoat	7 301,0	116,3
Qurilish	6 342,6	109,2
Savdo	6 875,6	112,1
Tashish va saqlash	9 382,1	116,7
Yashash va ovqatlanish	5 122,8	110,1
Axborot va aloqa	14 985,8	116,6
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	16 828,9	115,6
Ta'lim	4 188,5	119,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 765,4	114,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	5 114,7	122,8
O'rtacha	6 166,9	119,2

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'atlari san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida qayd etildi. Xususan, mazkur sohada 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,8 %** ni tashkil etib, ish haqi miqdori **5 114,7** ming so'm ga yetgani kuzatildi.

Shuningdek, ta'lim yo'nalishida ham sezilarli o'sish qayd etilib, ish haqi miqdori **4 188,5** ming so'm ni tashkil etdi (o'sish – **19,8 %**). Tashish va saqlash sohasida o'rtacha ish haqi **9 382,1** ming so'mni tashkil etib, **16,7 %** ga, axborot va aloqa sohasida esa **14 985,8** ming so'mga yetdi (**16,6 %** o'sish). Sanoat sohalarida o'rtacha ish haqi **7 301,0** ming so'mni tashkil etib, **16,3 %** ga oshgani qayd etildi.

Shu bilan birga, qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi **6 342,6** ming so'm bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,2 %** ga oshdi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida bu ko'rsatkich **5 122,8** ming so'mni tashkil etib, **10,1 %** ga, savdo sohasida **6 875,6** ming so'mni tashkil etib, **12,1 %** ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishida **3 765,4** ming so'mni tashkil etib, **14,6 %** ga oshdi. Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasida esa o'rtacha oylik ish haqi **16 828,9** ming so'mni tashkil etib, **15,6 %** ga o'sdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025-yilning 3-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori **16 828,9** ming so'mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **9 092,0** ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori **9 789,1** ming so'mga, tashish va saqlash sohasida **5 515,8** ming so'mga, sanoat sohasida **3 407,9** ming so'mga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida **2 824,6** ming so'mga va qurilish sohasida **2 728,6** ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi **7 301,0** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida **9 646,5** ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida **8 979,4** ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida **6 987,2** ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida **4 721,8** ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi **6 875,6** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida **9 014,9** ming so'mni, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo sohasida **7 165,7** ming so'mni, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo sohasida **6 323,9** ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi **9 382,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport sohasida **10 324,2** ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida **7 948,0** ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida **4 314,1** ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi **14 985,8** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida **19 995,7** ming so'mni, axborot xizmati ko'rsatish sohasida **18 642,9** ming so'mni, aloqa sohasida **11 758,6** ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 16 828,9 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasida **20 972,9** ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat sohasida **18 142,8** ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida **16 456,3** ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 188,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida **9 513,3** ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida **4 259,7** ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida **4 136,7** ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa **2 771,5** ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan, kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralari yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bu yerda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 30-maydagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/1018-milliy-gender-statistikasi-ko-rsatkichlarini-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2)
(<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/1018-milliy-gender-statistikasi-ko-rsatkichlarini-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>)

